



ASHTARXONIYLAR DAVRIDA ROSSIYANING BUXORO XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI

Norsafarova Zuhal Obid qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Talabalari Rustamova Sevinch Faxriddin qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xonliklaridan bo'lgan Buxoro xonligining XVII asr boshlari va XVIII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda ashtarxoniyalar sulolasining siyosiy aloqalari,xususan,Rossiya bilan munosabatlari haqida so'z yuritiladi. Bu davrda Buxoro xonligi va Rossiya imperiyasi o'zaro iqtisodiy,siyosiy,madaniy,diplomatik aloqalar olib borgan va o'z o'rniда elchilar ham almashinilgan. Rossiya tomonidan 1620-yilda Samarqandga kelgan Ivan Xoxlov, 1647-yilda jo'natilgan Anisim Gribov va imperator Pyotr I davridagi 1721-1725-yillarda Florio Benevini boshchiligidagi elchilik missiyalarining maqsad va vazifalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Imomqulixon,I.Xoxlov,A.Gribov,Odambiy,F.Benevini,Pyotr I,otryad.

KIRISH

O'rta Osiyodagi xonliklardan biri bo'lgan Buxoro xonligi XVI-XVIII asrlar davomida faol tashqi faoliyat olib borgan. Buxoro Shayboniyalar va Ashtarxoniyalar davrida o'z qo'shnilarini bilan faol iqtisodiy,siyosiy,madaniy va o'z o'rniда harbiy maqsadlarga qaratilgan aloqalarni o'rnatgan. Ashtarxoniyalar tomonidan iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni ko'zlab o'rnatilgan aloqalar keyinchalik XVIII asrning boshlariga kelib Pyotr I tomonidan Buxoroga nisbatan tazyiq o'tkazish va o'ziga teng bo'lмаган davlat sifatida kamsitish siyosatini olib borganligi bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Ashtarxoniyalar davrida Buxoro xonligining Rossiya bilan aloqalari haqida o'sha davr muarixlari,elchilar kundaliklari va hozirgi davr olimlarining tadqiqot ishlari orqali ma'lumot olish mumkin. Masalan, o'zbek olimlari J.Barakayevning "Buxoro tarixi",A. Zamonovning "Buxoro xonligi tarixi", H.Sodiqov va N.Jo'rayevning "O'zbekiston tarixi", A.Rasulov va A.Isoqovning "Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi",R.Alimovaning "O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari" kitoblarida elchilik aloqalari, ularning maqsad va vazifalari haqida so'z yuritiladi. Savdo-sotiq asosiy maqsad deb belgilangan holda Moskva O'rta Osiyo savdogarlaridan soliq olishni kamaytiradi va keyinchalik to'xtatadi.

Tahlil va natijalar: XVI-XVII asrlardagi O'rta Osiyo va Rossiya munosabatlari o'zaro umumiy manfaatlarga asoslangan edi.Rus hukmdorlari,dastlabki paytlarda, O'rta Osiyoga nisbatan o'zaro munosabatlarda xonliklar bilan tinch-totuv,savdo,iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni olib bordilar.Ammo XVIII asrdan,qachonki Rus davlati iqtisodiy,siyosiy jihatdan mustahkamlanganda, janubi-sharqqa bosqinchilik siyosatini yurgiza boshladilar. Ayniqsa bu Pyotr I boshqaruvi davrida yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi.[1]



Imomqulixon davrida Rossiya bilan diplomatik aloqlarda bir qadar rivojlanish sodir bo'ldi. Xon shu maqsadda 1620-yil xon Odambiyni rus podshosi Mixail Fyodorovich huzuriga va yuboradi. Rus podshosining Imomqulixonga yozgan javob xatida ikki tomon o'rtaida qaror topgan azaliy do'stlik, madaniy va savdo aloqalari gurkirab rivojlanishiga astoydil harakat qilishi aytib o'tilgan. Ivan Xoxlov javob elchisi sifatida 1620-yil 26-mayda tasdiqlangan yorliq bilan O'rta Osiyoga keladi. Xoxlov 1621-yilda Samarqandda bo'lib, Imomqulixon bilan uchrashgan hamda rus podshohi topshirig'iga asosan, Ivan Xoxlov xondan 27 ta rus asirlarini ozod qilishni so'raydi. Xon esa bunga javoban elchining iltimosini bajaradi.

Imomqulixon tomonidan yana bir elchi Xo'ja Otaquli 1634-yil bahorida rus podshosi Mixail Fyodorovichga xonlik tomonidan taqdim etilgan sovg'alar va maktubni yetkazadi. Mazkur elchilik natijasida soliqlarsiz savdo qilish huquqiga ega bo'lganini ko'rishimiz mumkin.[2] Oradan o'n yildan oshiqroq vaqt o'tib, ya'ni rus elchisi Anisim Gribovni podsho Aleksey Mixailovich 1646-yilda Eron orqali Buxoroga elchi qilib yuboradi. Elchiga Astraxandan Hindistonga qanday savdo yo'llari orqali borish qulayligi ya'ni Urganch orqalimi, yoki Eron va Buxoro shaharlari orqali borish mumkinligini bilish yuklatilgan. Aytish joizki, podsho tomonidan elchi A.Gribovga savdo aloqalarini rivojlantirish va qulay savdo yo'llarini aniqlash vazifalari yuklatilgan.[3]

Buxoroda Abulfayzxon hukmronlik qilayotgan davrda imperator Pyotr I maqsadli ravishda 1721-yil 6-noyabrda F.Benevini boshchiligidagi elchilik missiyasini yuboradi. Imperator tomonidan F.Beneviniga Buxoro xonligidagi qal'alar ahvoli, armiyaning tuzilishi, qo'shining umumiy soni, davlatni boshqarish usuli hamda Buxoroning Eron, Xiva, Turkiya munosabatlari haqida to'laqonli ma'lumotlarni to'plash va Rossiya bilan savdo-sotiqni rivojlantirishda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash bilan birga oltin zaxiralari haqida ma'lumotlar to'plash yuklatilgan.[4] F.Benevinining 3.5 yil ya'ni 1721-1724-yillardagi faoliyatida Buxoroning Xivaga qarshi Rossiya-Buxoro ittifoqini tashkil etish, xonliklar bilan urush bo'lgan taqdirda qancha askar va to'plarni ishga solish mumkinligi yuklatilgan. Shuningdek, Buxoro xoni Abulfayzxonga rus otryadlarini taklif etishi hamda siyosiy ahvolni o'rganishi lozim edi. Florio Benevini qo'l ostidagi N.Miner savdogar niqobi ostida bir necha bor Hirot, Balx va Badaxshonga borib keladi. U amalda elchi F.Benevinining topshirig'ini bajarib, to'plagan ma'lumotlarni Peterburgga yetkazish ishlari bilan ham shug'ullangan. F.Benevini zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajargach 1725-yilda Peterburgga qaytib ketadi [5].

Xulosa. Buxoro va Rossiya munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, bu davrda mahalliy elchilar Moskva yoki Peterburgga, Rossiyadan ham Samarqand va Buxoroga elchilik missiyalari jo'natilgan. Bu elchilik missiyalari siyosiy aloqalarni, davlatlar o'rta sidagi munosabatlarni rivojlantirish bilan birlgilikda ijtimoiy-iqtisodiy sohada ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Boj va soliqlarning kamaytirilishi tufayli O'rta Osiyo savdogarlari Rossiya shaharlarida erkin savdo qila boshladilar va Buxoroga ham yevropa mahsulotlari kirib kela boshlaydi.



ADABIYOTLAR:

- 1.A.Rasulov,A.Isoqboyev “Turkiston va Rossiya munosabatlari tarixi”- Namangan-2011.
- 2.A.Zamonov “Buxoro xonligi tarixi”-Toshkent-2021.
- 3.R.Alimova “Orta Osiyo xonliklarining qo’shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari”-Toshkent-2017.
- 4.N.Jo’rayev,H.Sodiqov “O’zbekiston tarixi”-Toshkent-2011.
- 5.A.Erqo’ziyev “Buxoro xonligi tarixi”-Namangan-2018.